

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING DIAKRON VA SINXRON TADQIQI

Xurshid Abdumajitov

O‘zDJTU, o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida sport terminlarining diakron va sinxron tadqiqi ko‘rib chiqilgan. Tilning rivojlanishi va o‘zgarishini e‘tiborga olgan holda, muallif sport terminologiyasining kelib chiqishi va o‘zgarish bosqichlarini tahlil qiladi. O‘zbek tilshunoslari tomonidan taqdim etilgan tarixiy manbalar asosida sport terminlari turli davrlarga ajratilgan. Ushbu tadqiqotda arab istilosi, Mo‘g‘ul istilosi, Temuriylar va Xonliklar davrlari kabi tarixiy davrlar o‘rganilgan. Maqola sport terminologiyasining rivojlanishida madaniyat va ilm-fanning ahamiyatini ta’kidlaydi, shuningdek, sport sohasidagi leksik birliklar va ularning tarixi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Sport terminologiyasi, sinxron, diakron o‘rganish, arab istilosi, mo‘g‘ul bosqini, sport leksikasi

Borliqdagi barcha narsa va hodisalar doimo o‘zgarishda, rivojlanishdadir. Bundan muloqot vositasi bo‘lgan til ham mustasno emas. Tildagi ana shu dialektik taraqqiyotni e‘tiborga olgan F.de Sossyur uni ikki holatda: diakron va sinxron aspektda o‘rganishni tavsiya etgan edi (1). Biz ham olimning qarashlarini ma’qullagan holda o‘zbek va ingliz tili jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid terminlarni diakron va sinxron aspektda o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Sport sohasiga oid terminologiya, leksika va lug‘at boyligining shakllanishi va rivojlanishi yer yuzida sportning paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq, ushbu jarayonda yurtimizda yashab o‘tgan buyuk bobokalonlarimiz, mutaffakir va allomalarimizning ta’siri beqiyos ahamiyatga ega. Binobarin, aksariyat kashfiyotlarning vatani bo‘lmish O‘rta Osiyo hududi jahon sivilizatsiyasida ham munosib baholanadi. Bunga yurtimizda “Baytu al-hikma” (Donishmandlar uyi VIII–IX asr) va Ma‘mun (X asr) akademiyasi kabi ilm dargoxlarining tashkil etilishini, unda butun dunyo ahlini lol qoldiruvchi kashfiyotlar qilinganligini misol keltirishimiz mumkin.

Sport terminologiyasi va leksikasini tadqiq qilar ekanmiz, ularning rivojlanishi va shakllanishi sport turlarining paydo bo‘lishi va shakllanish bosqichlariga ega ekanligini asoslashga harakat qildik. Chunki, o‘rganilayotgan mavzuni diakron va sinxron tadqiq qilish tilshunoslikda olib boriladigan tadqiqotlarda samarali usul ekanligi isbotlangan. Shunday ekan, quyida sportning shakllanish va rivojlanish jarayonini uning terminologiyasi va leksikasi bilan ketma-ket davrlarga ajratgan holda tadqiq qilamiz. Maqolamizda jismoniy tarbiya va sport terminologiyasi va leksikasining rivojlanish bosqichlarini to‘rtta asosiy davrlarga bo‘lib tadqiq qilamiz.

X. Sarimsakov o‘z tadqiqot ishida o‘zbek tilshunoslari A. Nurmonov va N. Mahmudovlarning “O‘zbek tilshunosligi tarixi” kitobiga asoslanib o‘zbek tilidagi jismoniy tarbiya va sportga oid terminlar tarixini tadrijiy holda davrlarga ajratib tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi (2). Biz ham olimning fikriga qo‘shilgan holda o‘zbek tili jismoniy tarbiya va sport terminologiyasini quyidagi jadval asosida tasniflash, ularning kelib chiqish va rivojlanish bosqichlarini manbalar orqali tadrijiy ketma-ketlikda yoritib berish tadqiqot vazifalarimizdan biri deb bildik.

1.	Arab istilosi davri (632-1258)	“Tib qonunlari”
2.	Qoraxoniylar davri (999-1141)	“Devonu lug‘otit turk”
3.	Mo‘g‘ul istilosi davri (1220-1368)	“At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya”
4.	Temuriylar davri (1370-1512)	“Temur tuzuklari”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Boburnoma”
5.	Xonliklar davri (1512-1920)	“Shajarai tarokima”

6.	Chor Rossiyasi va sobiq sho'rolar davri (1870-1991)	"Ruscha-o'zbekcha fizkulstura va sport terminlari lug'ati
----	---	---

Eng qadimgi davrda yashagan ajdodlarimizning dastlabki urf-odatlarini, an'anaviy marosimlari, ommaviy tadbirlari, kundalik turmush tarzi qadimgi afsonalar, rivoyatlar, xalq yertaklarida o'z aksini topgan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qirg'iz", "Manas", "To'maris" kabi xalq og'zaki ijodi namunalarida qadimgi davrda jismoniy tarbiya vositalarining turli o'yinlar, otda yurish, kurash, kamondan o'q otish va boshqa mashqlarning qo'llanilishida aniqladik. Ularda jismoniy tarbiya va sportga oid dastlabki leksik birliklarni uchratdik Masalan: Anqa polvon, asbi tozi, bedov, yoy, botmon, dubulg'a (**Dubulg'a** boshdan do'ng'illab, Kark qubba qalqon qarqillab:30bet), duldul, durbi, dung, do'non (ikki yashar ot), yoyandoz, zulfiqor (qilich), kuyov uloq, ko'pkari, nishon, orachar (ajratib qo'yadigan kishi), sadog' (kamonning o'qi turadigan moslama), sovut, solim, suvora (chavandozlik), tak (otni to'xtatish uchun aytiladigan so'z), taraf (raqib), terlik (ot anjomi, yopinchiq), tirashmoq (bir-biriga yelka qadab surishmoq), tig' (qilichning o'tkir qismi), tulpor, uzangi, uloq, harba (qarshi hujum), hilla (hiyla), chaqirtirish (e'lon qilmoq), egar, yugan, qayish (teridan ishlanan enli arqon), qur(davra), qo'shtaqim, haripdosh(musobaqadosh), himoyat(himoyachi) (3) va boshqalar.

Arab istilosi davri. Bu davrda mamlakatimizda Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk bobokalonlarimiz bir vaqtning o'zida bir qancha sohalarning rivojlanishiga munosib hissalarini qo'shganlar va ularning jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha bildirgan ko'pgina qimmatli fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatiga ega. Shunday olimlardan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Ibn Sino ilmiy faoliyatini arab tilida olib borgan. Olim birinchilardan bo'lib jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratgan bo'lib uni sog'lom turmush tarzining asosiy manbai ekanligini ta'kidlagan. Xususan, o'z vaqtida, me'yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi yoki badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq ham shart (4) kabi hikmatlarining mazmunini yuqoridagi fikrimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Jumladan, Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida badan tarbiya harakatlari tushunchasiga kishilarning sog'lom bo'lishi uchun bajaradigan kundalik jismoniy harakatlar majmui degan ta'rifni ilgari suradi. Mutafakkir jismoniy harakatlarni o'z navbatida kichik va katta, kuchli va kuchsiz, tez va sust kabilarga ajratadi. Unga ko'ra badantarbiyaning tez harakat turlariga: o'zaro tortishish; musht bilan turtishish; yoydan o'q otish; tez yurish; yuqoridagi narsaga sakrab osilish; bir oyoqda sakrash; qilichbozlik va nayzabozlik; otda yurish; ikki qo'lni silkitish misol bo'lishi mumkin (5). Nozik va yengil badantarbiya turlariga: arg'imchoq va belanchaklarda uchish; qayiq yoki kemalarda sayr qilish mashg'ulotlari; kuchli badan tarbiya turlariga esa: mashq maydoni harakatlari (kishi maydonning u chetidan bu chetiga tezkorlik bilan borib ortiga teskari holatda qaytadi), kishi o'z soyasi bilan olishishi, chapak chalish, sakrash, nayza uchi bilan sanchish, chovgon o'ynash, koptoklar bilan o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, quvlashish va chopayotgan ot jilovidan ushlash (6) kabi hozirgi kunda sport turi sifatida shakllangan harakatlar majmuini o'z asarlarida keltirgan.

Mo'g'ullar istilosi davrida jismoniy tarbiya va sport leksikasi. Shuni ta'kidlash kerakki, mo'g'ullar turkiyzabon elatlarni istilo qilib turganda, uning madaniyatiga ta'sir eta olmadi. Aksincha, turkiy elatlar mo'g'ul madaniyatining rivojiga kuchli ta'sir etdi. Jumladan, mo'g'ullar turkiylardan yozuv madaniyatini o'zlashtirdi... Shuningdek, noma'lum muallif tomonidan yozilgan "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", qisqacha "At-tuhfa") asari ham shu davrga mansubdir (7). Asar tarkibidagi leksemalarni tahlil qilish natijasida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid quyidagi terminologik birliklarni aniqladik. Masalan: **at** - ot, **doqmaq** - to'qmoq, **qalqan** - qalqon; **tobiq** - chovgon o'yini to'pi; **baqan** - halqa, **o'ar** - egar; **bashmaq** - oyoq kiyim; **bork** - qalpoq, bosh kiyim; **butun** - sog'lom; **ishkik** - eshkak, **kami/kama** - kema; **kamani** - dengizchi; **kurash**-kurash; **kurrachi** - kurashchi; **qilich** - qilich; **quchaq** - belbog'; **ortar** - chodir; **tajaq** - tayoq; **chapish** - qilich tushish; **yalkan/yilkan** - yelkan; **omach** - nishon; va boshqalar (8).

Temuriylar davrida sport leksik birliklari. O‘zbek xalqi tarixi, xususan o‘zbek tili rivojlanishida Temuriylar hukmronligi o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Temur tuzuklarida yozilishicha, saroy majlisida olimu fuzalolar doimo Sohibqiron yonidan joy olganlar (9). Ushbu ko‘rilgan qat‘iy choralar natijasi o‘laroq Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, san‘at gullab-yashnagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, jismoniy tarbiya xarakatlari majmuining harbiy xarakatlarda samarali qo‘llanilishi, turkiy (o‘zbek) tilning sathi fors tili bilan tenglashtirilishi, sport turlarining shakllanishi, sohaga oid leksik birliklarining umumiste‘moldagi so‘zlardan termin sifatida ajralishiga olib keldi. O‘tkazgan tahlillarimizda millatning milliy qadriyatlarini namoyon etuvchi “Temur tuzuklari” asarida jismoniy tarbiya va sportga oid quyidagi leksik birliklarni aniqladik. Masalan: sinohiy, suvoriy, kamar, xayla, chodir, sovut, kaskan, bo‘kla, yosal, tarh va boshqa (10). Ushbu kamar, xayla(xiyla), kabi so‘zlar og‘ir atletika, boks, kurash boshqa sport turlari leksikasida hozirgi kunda ham qo‘llanilishining guvohi bo‘ldik. Masalan: Bektemir Meliqo‘ziev ilk chempionlik kamarini qo‘lga kiritdi (11). Mutafakkir Alisher Navoiy jismoniy tarbiya atamasi o‘rnida ko‘ngil tarbiyasi atamasini ham ishlatadi: “Ko‘ngil badan mulkining podshosidir. Ko‘ngilning salomatligi – badanning ham salomatligidir”, – deya e‘tirof etgan(12). Xususan, “Hayrat ul-abror” va “G‘aroyib us-sig‘ar” dostonlarida shaxmat sport turi haqidagi fikr va mulohazalarni bayon etgan. Masalan: “yurushda otlardek za‘fi ta‘rifidakim, muammo ichida otdek paydo emas...” ya’ni “yurgan paytda qaddi ot donasidek mag‘rur deya ta‘riflaysiz, ammo og‘ir vaziyatda ot donasidek qaddi tik emas...” deya ushbu baytni keltiradi. Shu bilan birga, muallifning boshqa asarlarida ham shatranj – shaxmat (o‘yini); ot – ot figurasi; bisot – shaxmat taxtasi; baydaq – piyoda; shoh – shoh; pil – fil figurasi; rux – ruh figurasi kabi shaxmat o‘yiniga doir birliklarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik.

References:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи: Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетларининг талабалари учун ўқув қўлланма. — Т.: «Ўзбекистон», 2002. 232 б.(212 б)
2. Саримсоков Х. А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол. фан. д-ри. (PhD) ... дисс. Автореф. – Т., 2020. – 48 б (136)
3. Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – “Elmus-Press-media”, Тошкент, 2007
4. <http://old.uza.uz/oz/society/salomatlik-a-ida-ibn-sino-ikmatlari-25-02-2020>
5. Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Фан, 1983. I- китоб. – 549 б.(523 б.)
6. Саримсоков Х. А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол. фан. д-ри. (PhD) ... дисс. – Т., 2020. – 171 б (526.)
7. Нурмонов, Абдухамид. Ўзбек тилшунослиги тарихи: Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетларининг талабалари учун ўқув қўлланма. — Т.: «Ўзбекистон», 2002. 232 б. (566.)
8. Аттухфатуз закияти филлуғатит туркия (Мўғуллар давридан етиб келган, муаллифи номаълум асар). – Тошкент: Фан, 1968. – 231 б.
9. Зиёдулла Муқимов. Амир Темур тузуклари (тарихийҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 131 бет(596.)
10. Темур тузуклари (Форсча матндан Алихонтўра Соғуний ва Ҳ. Кароматовлар таржимаси).– Тошкент, 2011. – 186 б.
11. <https://kun.uz/news/2019/12/14/bektemir-meliqoziyev-ilk-chempionlik-kamarini-qolga-kiritdi>
12. Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан, 1974. – 82 б.